

Qoratepada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga bag'ishlangan kitob nashr etildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti hamda Koreya Respublikasi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan "Qoratepa buddaviylik markazida 2011-2014 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar" nomli kitob nashr etildi.



Mazkur kitobda O'zR FA San'atshunoslik instituti va Koreya Respublikasi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot

instituti qo'shma ekspeditsiyasining Ko'hna Termizdagi Qoratepa buddaviylik markazida 2011-2014 yillarda olib borgan arxeologik tadqiqotlarining dastlabki natijalari bayon etilgan. Izlanishlar natijasida O'rta Osiyo hududidagi milodiy I asr o'rtalariga oid ilk asosi aylana ko'rinishidagi buddaviylik stupasi kashf qilingan.